

TA'LIM TIZIMIDA UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Qosimov Azimjon Sanaqul o'g'li
Maktab menejmenti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lif muassasalarining faol ishtirokini ta'lif sifatini oshirishga respublikada amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi yangiliklarda ushbu muassasalarining faol ishtiroki ta'minlashga to'siq bo'layotgan bir qator muammolar va ularning yechimlari keltirilgan. Bundan tashqari ushbu maqolada innovatsion ta'lif texnolgiyalarni dars jarayoniga tadbiq etish yo'llari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: innovatsiya, ta'lif sifati, pedagogik ko'nikma, individuallik, tajriba maktablari, ochiq muloqot

Boshlang'ich maktabdan universitet darajasigacha bo'lgan barcha jarayonlarda ta'lif kelajakka yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Shu nuqtai nazaridan, ilmiy-texnika taraqqiyoti va jahon iqtisodiyotini muntazam ravishda tahlil qilish va kelajakni bashorat qiladigan tadqiqotlar olib borish juda foydali bo'ladi. Globallashayotgan dunyoda biron bir davlat orol kabi omon qololmaydi; har kim hammadan nimanidir o'rganishi kerak. Hozirgi davrda iqtisodiyotni raqamlashtirishning ta'siri, ishlab chiqarishning yangi shakllari va ularning mehnat bozoriga ta'siri va kelajakdagi kasblarning ishlashi talabalar uchun faqatgina ba'zi muammolar.

Talabalar doimiy ravishda yangilanishlar va doimiy moslashish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar uchun ochiq fikrga ega bo'lishlari kerak.

Bilamizki har qanday sohada taraqiyotga erishishni xoxlagan davlat uchun ta'lif hal qiluvchi o'rinda turadi. Fikrimizcha, O'zbekistonda ushbu maqsadlarga eishish uchun juda uzoq yo'l turibdi. Zero uchinchi renesansning poydevori maktabdan boshlanadi.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida uchraydigan ayrim kamchiliklar talaba yoshlarning sifatli bilim olishi hamda ilm-fanga bo'lgan qiziqishni so'ndirishga sabab bo'layapti. Bu esa kelajagimizga putur yetkazishi mumkin.

Talabalarni ilm-fanga qiziqtirishning samarali yo'llarini topishdan oldin ularni ta'lim olayotgan muhitini chiroqli qilishimiz kerak.

Birinchi navbatda dunyoning rivojlangan mamlakatalarini oladigan bo'lsak ularda ta'limga oid vazirliklar yo'q, oliygochlarni hech qanday ta'lim vazirliklari boshqarishmaydi. Rivojlangan mamlakatlarda oliygohlar xususiy va mustaqil. Bu oliygohlar o'zlarini o'zlarini moliyalashtiradi va o'zlarini qabul kvotasini belgilab talaba yoshlarni qabul qilishadi. Fikrimizcha bu oliy ta'lim tizimidagi eng samarali usullardan biri. Sababi oliygoh qanchalik mustaqil bo'lsa ,o'zlarini o'zi moliyalashtira olsa shunchalik korrupsiyadan holi bo'ladi. Korrupsiya ta'lim tizimini orqaga tortadigan eng ayanchli illatlardan biri. Misol uchun xitoyliklar ta'lim tizimiga qaraydigan bo'lsak ,ularda oliygochlarni vazirliklar emas ta'limni nazorat qilish inspeksiyasi nazorat qiladi. Hamda oliygohlar mustaqil o'zini o'zi moliyalashtiradi.

Oliygohlar mustaqil bo'lgach shartnoma pulini hamma-hammasini o'zlarini belgilaydilar.Tabiyyki bu oliygohda o'qish istagini bildirgan har qanday shaxs oliygoh bilan batafsil tanishadi. Bu esa oliygohlar o'rtasida raqobatni vujudga keltiradi. Raqobat bor joyda rivojlanish bo'ladi.

Ikkinchidan esa O'zbekistonda oliygohlarda bilim olish uchun yanada qulay imkoniyatlar yaratishimiz lozim. *Oliygoh shaharchalarini tashkil etilishi kerak.* Ushbu shaharcha tashkil etilsa talabalarni qiziqishi yanada oshadi. Misol uchun oliygohda 10000 ta talaba taxesil olsa ularning hammasini turar joy bilan ta'minlash lozim.

Talabalarining hammasi ham turar joy bilan ta'minlansa ,bu talaba yoshlarning vaqlarni to'g'ri taqsimlash va undan unumli foydalanishga hamda ularni nazorat qilishga yordam beradi. Xorijiy oliy ta'lim muassassalari faoliyatiga nazar soladigan bo'lsak ,ular uchun tashkil etilgan oliygoh shaharchasi hududida

talabalar uchun turarjoylar, madaniy xordik uchun bog’lar, turli xildagi madaniyat teatr zallari, ovqatlanish maskanlari, sport maydonchalari va eng asosiysi ko’p o’rinli kutubxonalar mavjud.

Shaharchaga kirish-chiqish har doim nazorat ostida turadi. Bu esa talabalarning xavfsizligi , erkinligi va qulaylik yaratish bilan birgalikda sifatli ta’lim tizimini ham o’z ichiga oladi.

Hozirgi kunda O’zbekistondagi oliy ta’lim muassasalarida afsuski bunday shart-sharoitlar mavjud emas. Shuning uchun biz yoshlar yangidan yangi innovatsiyalarni ta’lim tizimiga olib kirsak foydadan holi bo’ladi.

Uchinchidan individual ta’limni yo’lga qo’yishimiz kerak. Hozirgi kunda bunday ta’lim faqatgina qog’ozda qolib ketayapti, shu tizimni amaliyotga olib kirsak foydadan holi bo’ladi¹.

Xulosa qilib, aytadigan bo’lsak ta’limda innovatsiyalarni olib kirishdan oldin, ta’limdagи kamchiliklarni to’g’rilashimiz va yuqoridagi usullarni ta’lim jarayoniga olib kirishimiz kerak.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo’nalishlarida hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta’lim tizimini yaratish bo’yicha keng ko’lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Hududlarda yangi oliy ta’lim tizimini tashkil etilishi kadrlar tayyorlashning zamonaviy ta’lim yo’nalishi muatxassisliklarini hamda sirtqi va kechki bo’limlarining ochilishi oliy ta’lim muassasalaiga qabul kvotalarining ochilishi maskur yo’nalishdagi muhim islohotlar hisoblanadi.

Shu bilan birga oliy ta’lim muassasalarining faol ishtirokini ta’lim sifatini oshirishga respublikada amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi yangiliklarda ushbu muassasalarning faol ishtiroki ta’minlashga to’siq bo’layotgan bir qator muammolar saqlanib qolmoqda va bu muammolarni oldini olish uchun ta’lim tizimiga talaba yoshlarlarni qiziqtirishimiz va shu bilan birga ularga keng imkoniyatlar yaratib berishimiz kerak.

¹ Miraliyeva D.Jahon ta’lim tizimi.O’quv uslubiy majmua.T: Iqtisodiyot 2016

Birinchidan, oliy ta'lim tizimida o'qitishni tashkil etish jarayoni ta'lim olayotgan talabalar bilimini baholash tizimi bugungi kun talablariga javob bermasligi;

Ikkinchidan, ayrim professor-o'qituvchilarning faoliyatini, bilimini va pedagogik ko'nikmasini baholashning zamonaviy tizimi navjud emasligi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi;

Uchinchidan, oliy ta'lim muassasalariga kirish test sinovlari abuturenning mantiqiy fikrlash qobiliyatini aniqlash imkonii berilmayotganligi kabi muammolar ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatayapti.

Shuning uchun ta'lim tizimini sifat jihatdan yuqoriga ko'tarish uchun quydagi usullardan foydalansak ijobjiy natija beradi.

➤ *Birinchidan*, o'quvchilar o'zлari istiqomat qilayotgan hududiga maktablari yaqin bo'lisi kerak. Hozirgi kunda shunday muammolar borki, o'quvchi o'zining yonidagi maktabga bormay, uzoq hududdagi maktabga boradi. Natijada esa bolani qiziqishi so'nishi mumkin. Chunki masofa uzoq, individual shug'ullanish imkonii yo'q va hakozo.

➤ *Ikkinchidan*, talaba yoshlarni imtihonga emas, balki hayotiy ko'nikmalarga o'rgatish lozim. Ya'ni bola ta'lim jarayonida dunyoviy bilimlar bilan bir qatorda kasbga yo'naltirish ishlarini olib borsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunday imkoniyatlar bo'lsa talaba qanday fan bo'lishidan qatiyy nazar qiziqishi ortadi.

➤ *Uchinchidan*, talaba kelajakda o'qituvchi bo'lishni istasa, ta'lim jarayonini davom ettirib, *tajriba maktablarini tashkil etishni* yo'lga qo'yish kerak. Bunday maktablarni yurtimizda bo'lisi o'qituvchilar salohiyatini oshishiga katta hissa qo'shamdi.

➤ *To'rtinchidan*, Dars jarayonida talabaning kuchli bo'lisi asosiy usullarimizdan biri hisoblanadi. Chunki talab qancha kuchli bo'lsa, talaba o'z ustida ko'proq ishlaydi. Va shu fanga qiziqishi ortadi.

➤ *Beshinchidan*, Talabalar va professor-o'qituvchilar o'rtasida ochiq muloqotni, o'zaro fikr almashishni yo'lga qo'yish. Bu usul ham talaba va o'qituvchi o'rtasidagi munosabat yaxshi tomonga o'zgartiradi².

Xulosa qilib aytganimizda, talaba yoshlarni ilm fanga qiziqtirishni usullar juda ko'p, lekin biz shu usullarni amaliyotga joriy qilsak samarali natija beradi. Bundan tashqari talabalarni jalb qilishda institut va universitetlarni dizayniga ham urg'u berish muhim ahamiyatga ega

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alimova, Q. (2021). FARZAND TARBIYALASHDA OTA-ONALARING ASOSIY XATOLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(1). извлечено от <https://art.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/594>
2. Alimova, Q. (2021). УПРАВЛЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫМИ ПРОЦЕССАМИ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ. *Джизакское инновационное образование*, 1(1). извлечено от <https://education.jspi.uz/index.php/education/article/view/564>
3. Alimova, Q. (2021). ZAMONAVIY MENEJER FAOLIYATI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (1). извлечено от <https://hp.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/920>
4. Nazarov, T. (2021). TA'LIM TIZIMIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(4). извлечено от <https://phys-tech.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4423>
5. Alimova, Q. (2021). TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSIYA JARAYONLARINI BOSHQARISH. *Jizzax innovatsion ta'limi*, 1 (1). <Https://education.jspi.uz/index.php/education/article/view/564>

² <https://m-eng.ru/uz/cleaning/monitoring-i-sistema-kachestva-obrazovaniya-vozmozhnye-varianty-sozdaniya.html>

6. Аблякимова, Р., & Alimova, Q. (2021). TA'LIMDA RAQAMLI IQTISODIYOT VA KORPORATIV BOSHQARUV. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1535>
7. Alimova, K. O. K., Toshboyeva, K. M. K., & Ungarov, B. T. U. (2021). TODAY'S STUDENT IS TOMORROW'S LEADER. *Scientific progress*, 2(2), 308-310. <https://cyberleninka.ru/article/n/todays-student-is-tomorrows-leader>
8. Alimova, Q. (2021). PSYCHOLOGICAL PROPERTIES OF THE RICHBAR PERSON IN THE MANAGEMENT. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(3). извлечено от <https://hp.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/3651>
9. Isankulova , M. ., & Alimova, . Q. . (2021). YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRILISH MASALALARI. *Научно-просветительский журнал "Насставник"*, (1). извлечено от <https://phys-tech.jspi.uz/index.php/science/article/view/1180>
10. Ablyakimova, R. (2020). VIEW AND THEORIES ON FACTORS INFLUENCING MANAGEMENT DECISION-MAKING. *Архив Научных Публикаций JSPI*, 11(1). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/1052.
11. Botirov, B. F., Usmonov, J., &Ablyakimova, R. I. (2021). Organization Of Tourism Services In Uzbekistan Based On The Combination Of National Styles And Modern Innovations. *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND CURRENT RESEARCH CONFERENCES*, 53–57
12. Аблякимова, Р., &Alimova, Q. (2021). TA'LIMDA RAQAMLI IQTISODIYOT VA KORPORATIV BOSHQARUV. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1535>
13. Аблякимова, Р., &Usmonov, A. (2021). Умутаълиммактабнисамаралибошқаришдаянгичаёндошув. *Журнал*

Педагогики и психологии в современном образовании, (2). извлечено от
<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1537>

14. Аблякимова, Р. (2021). НОДАВЛАТ МАКТАБЛАР ВА УЛАРНИ ЎЗБЕКИСТОНДА РИВОЖЛАНТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (2). извлечено от

[https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1536.](https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1536)

15. Аблякимова, Р. (2021). ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (2). извлечено от
[https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1527.](https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1527)

16. Аблякимова, Р. (2021). O'ZBEKISTONDA IT SOHASINING LOKOMOTIVI. *Zamonaviyta 'limda Pedagogika Va Psixologiya Fanlari*, 1(3).

Retrieved from <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4085>

17. Ablyakimova, R. I. (2022). THE ROLE OF WOMEN IN GOVERNMENT AND SOCIETY IN UZBEKISTAN. *MentalEnlightenmentScientific-MethodologicalJournal*, 2022(2), 1-9.

18. Nazarov, Т. (2021). КРИТИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ - ИДЕАЛЬНАЯ ОСНОВА ДЛЯ БУДУЩИХ ПРОФЕССИЙ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(1). извлечено от
<https://fll.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/459>

19. Toshboyeva, H. (2021). ZAMONAVIY MENEJER VA YETAKCHI. *Mир исследований*, 1(1). извлечено от

<https://presedu.jspi.uz/index.php/journal/article/view/937>

20. Usmonov, A. (2021). IQTISODIY SAVODXONLIK VA IQTISODIY TA'LIMNING TARBIYAVIY AHAMIYATI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (1). извлечено от

<https://art.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1326>

21. B. F. Botirov, J. Usmonov, & R. I. Ablyakimova. (2021). Organization Of Tourism Services In Uzbekistan Based On The Combination Of National Styles

And Modern Innovations . INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND CURRENT RESEARCH CONFERENCES, 53–57. Retrieved from <https://usajournalshub.com/conferences/index.php/iscrc/article/view/66>

22. Botirov, S. (2022). Рақамли иқтисодиётни шакллантириш жараёнида илмий инновацион фаолиятни шакллантириш . Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(4). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4793>